

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI.

N.D.Xayrullayeva
UZDJTSU o‘qituvchisi.

B.H.Mavlonova
GULDU magistranti.
E-mail: nodira0728@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda tayanch kompetentli - yo‘naltirilgan topshiriqlarning mazmuni va tarkibiy tuzilishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, kompetensiya, tayanch kompetensiya, axborot, kommunikativ, ko‘nikma, faoliyat.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim- o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shallantirishga yo‘naltirilgan ta‘limdir.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim- bo‘lajak boshlang‘ich ta‘limi o‘qituvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb tanlash, sog‘lom raqobat va umummadaniy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan bo‘lajak boshlang‘ich ta‘limi o‘qituvchilariga quyidagi tayanch kompetensiyalarni shakllantirilishi nazarda tutilgan.

- Kommunikativ kompetensiya
- Axborot bilan ishlash kompetensiyasi
- Shaxs sifatida o‘z o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi
- Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
- Umummadaniy kompetensiyalar
- Matematik savodxonlik, fan texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi

Ta‘lim tarbiya jarayonida kompetensiyali yondashuv o‘qitish maqsadlariga erishish uchun ta‘lim mazmunini boyitish o‘quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon beradigan umumiy prinsiplar yig‘indisi sanaladi.

Ular jumlasiga quyidagilarni:

- Talabalarning mustaqil hayotdagi turli faoliyat va yo'nalishlardagi muammolarni o'zlashtirgan bilim, ko'nikma malakalar, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari, shaxsiy xulosalariga asoslanib xal etish qobiliyatini rivojlantirish;

- Kompetensiyali yondashuv ta'lim mazmunini tanlash va metodik ta'minotini yaratishda talabalarning qiziqishlarini orttirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy, g'oyaviy- siyosiy, ekologik muammolarni hal etish, didaktik jihatdan qayta ishlangan o'zida talabalarni avval o'zlashtirgan bilim ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash, kuzatishlar yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradigan o'quv topshiriqlari bo'lishiga e'tibor qaratish;

Kompetensiyaviy yondashuvda – o'qitish maqsadlari bo'lajak boshlang'ich ta'limi talabalari tomonidan o'z – o'zini anglash, ta'lim tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushunish, talabalarni o'quv bilim faoliyatini faollashtirish, shaxs sifatida o'z- o'zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo'nalishlarini mo'ljallash nazarda tutiladi.

Kompetensiyali o'qitish jarayonida quyidagi funksiyalarni amalga oshirish imkoniyati mavjud:

- Davlatimizning kelgusida jamiyat, fan, ishlab chiqarish va mustaqil hayotdagi muammolarni hal etishga qodir yoshlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish;

- Talabalarni qiziqishlarini rivojlantirish, shaxsiy sifatlarini shakllantirish;

- Talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribalarini aniq obyektlarga qaratish va mavjud muammolarni hal etish orqali tayanch va xususiy kompetensiyalarni tarkib topdirish

- Talabalarni aniq amaliy faoliyatga tayyorgarligini orttirish orqali ularni yosh, psixologik va ergonomic xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini etiborga olgan xolda kasbga, ijodiy faoliyat tajribalarini rivojlantirish natijasida fan yo'nalishiga yo'llash;

Boshlang'ich ta'lim o'qitish metodikasida darsga qo'yiladigan talablar uch guruh: metodik, tarbiyaviy va tashkiliy talablarga ajratiladi.

Metod talablar jumlasiga:

Xar bir darsning ta'limiy maqsadlari va uning darslar sistemasida tutgan o'rnini aniq belgilash;

- Talabalarni tayyorgarlik darajasi, o'qitish maqsadlari, o'quv dasturining talablarga mos xolda o'quv materiallarini optimal darajada tanlash;

- Darsda rivojlantiradigan umumiy va shakllantiriladigan xususiy boshlang'ich ta'limga oid tushunchalar, tarkib topdiriladigan ko'nikma va malakalar, talabalarda tayanch va xususiy biologik kompetensiyalarni aniqlash;

➤ Darsning har bir bosqichini maqsadini amalga oshirish maqsadida o'qitishning samarali metodlari, vositalari, bilimlarni nazorat qilish va rag'batlantirish metodlarini aniqlash va ularni uyg'unlashtirish orqali talabalarni bilish faoliyatini faollashtirish;

➤ Darsda talabalarni yalpi o'qitish bilan bir qatorda yakka va kichik guruhlarda mustaqil ishlarni tashkil etish orqali ularda taxsil olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishi, qiziqishini orttirish, mustaqillikni rivojlantirish kabilarni kiritish mumkin.

Bo'lajak boshlang'ich ta'limi talabalarini o'qitishda qo'yiladigan tarbiyaviy talablar:

Darsning talabalarning o'zlashtirayotgan bilimlari, mavzuning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy, aqliy, gigiyenik, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy tarbiya berish, estetik tuyg'u, mexnatsevarlik, ekologik madaniyatni tarkib topdirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy maqsadlarining aniq qo'yilishi;

Talabalar tomonidan bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikma va malakalari, boshlang'ich ta'limni o'rganishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini rivojlantirish, ularning faoliyatidagi ijodiy faollik va tashabbuskorlikni rag'batlantirish;

Talaba tomonidan yuqori darajadagi pedagogik takt va muloqot madaniyatiga amal qilish kabilarni o'zida mujassamlashtiradi.

Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Mavzuli reja asosida darsning ilmiy- metodik saviyada loyihalangan ishlanmasi mavjudligi;

Darsning har bir bosqichini tashkil etishning aniq rejalashtirilganligi;

Mavzuga oid tarqatma va didaktik materiallar, talabalar bilimni nazorat qilish va baholash uchun o'quv topshiriqlari, differensial topshiriqlarning tuzilganligi;

Vaqtdan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish uchun darsning texnologik xaritasining mavjudligi;

O'qitish vositalarining mavjudligi va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yilishi kabilarni kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" GI PF-5712- sonli farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

2. Vazirlar Mahkamasining 6 aprel 2017 yildagi 187-son “Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb- hunar taʼlimining davlat taʼlim standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisidagi” qarori // <http://lex.uz/doss/3153714>

3. Радионова Н.Ф., Тряпицына А.П. Компетентностный подход в педагогическом образовании / Электронный научный журнал Вестник Омского государственного педагогического университета. Выпуск 2006. www.omsk.edu.

4. KHAYRULLAEVA, Nodira. Use of Information and Communication And 3D Technologies with Elements of Healthcare in Biology Lessons. **International Journal of Progressive Sciences and Technologies**, [S.l.], v. 18, n. 1, p. 165-167, jan. 2020. ISSN 2509-0119. Available at: <https://ijpsat.org/index.php/ijpsat/article/view/1519/796>. Date accessed: 13 apr. 2023. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v18.1.1519>.

5. Хайдаров, М., Алламуратов, М., & Хайруллаева, Н. (2021). Сравнительная оценка физического состояния подростков 11-16 лет с нарушением интеллекта. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 287-293.

6. Сейдалиева, Л. Д., & Хайруллаева, Н. Д. (2022). БАДИЙ ГИМНАСТИКА БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ СПОРТЧИЛАР ОРГАНИЗМИДА МАШҒУЛОТ ЖАРАЁНИДА КАРДИО РЕСПИРАТОР ТИЗИМИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1248-1256.

7. Сейдалиева, Л. Д., & Хайруллаева, Н. Д. (2022). РИВОЖЛАНИШНИНГ БОШЛАНҒИЧ ДАВРИДАГИ 6-7 ЁШЛИ ГИМНАСТИКАЧИ ҚИЗЛАРНИНГ ВЕСТИБУЛЯР АППАРАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. *Innovations in Technology and Science Education*, 1(5), 110-119.

8. Seydalieva, L. D., & Khairullaeva, N. D. (2023). Development of the Vestibular Apparatus of 6-7-Year-Old Gymnasts. *Scholastic: Journal of Natural and Medical Education*, 2(3), 152-157. Retrieved from <https://univerpubl.com/index.php/scholastic/article/view/839>

9. Hayrullayeva N.D. Improvement of Students' Methodical Training Based on Virtual Technologies in the Process of Biology Education. *WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal* Volume 2 Issue 4, Year 2023 ISSN: 2835-3013 <https://univerpubl.com/index.php/synergy>
<https://univerpubl.com/index.php/synergy/article/view/977>